



## ANALYSIS OF THE POETIC EXCERPTS IN THE WORK 'SIYOSATNOMA'

**Umida Bahronova**

*4th-year Bachelor's student*

*"Turkology" Higher School*

*Tashkent State Institute of Oriental Studies*

*Email: [bahronovaumidatdshu@gmail.com](mailto:bahronovaumidatdshu@gmail.com)*

**O. Turdiyeva**

*Doctor of Philology*

*Associate Professor at the "Iranian Studies and Afghan Studies" Higher School*

*TDSHU*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Nizam al-Mulk, Siyosatnoma, magnanimity, friendship, poetic arts, contrast.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article analyzes the poetic excerpts in the work Siyosatnoma by the great statesman and thinker Nizam al-Mulk. The poems found in the work encompass ideas on state governance, justice, moral values, and provide valuable advice for rulers. The author effectively utilized poetic expressions to address the political and social issues of his time. The article discusses the content of these poetic excerpts and analyzes their artistic characteristics.

### "SIYOSATNOMA" ASARIDAGI SHE'RIY PARCHALAR T AHLILI

**Umida Bahronova**

*4-kurs bakalavr bosqichi talabasi*

*"Turkshunoslik" oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*E-mail: [bahronovaumidatdshu@gmail.com](mailto:bahronovaumidatdshu@gmail.com)*

**O. Turdiyeva**

*filologiya fanlari doktori*

*"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti*

*TDSHU*

*Tashkent, O'zbekiston*

---

## MAQOLA HAQIDA

---

<b>Kalit so‘zlar:</b> Nizomulmulk, “Siyosatnoma”, juvonmardlik, do‘st, she’riy san’atlar, tazod.	<b>Annotatsiya:</b> Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va mutafakkir Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridagi she’riy parchalar tahlil etiladi. Asarda uchraydigan she’rlar davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy qadriyatlar va hukmdorlar uchun ibratli pand-nasihatomuz g‘oyalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Muallif o‘z davrining siyosiy va ijtimoiy muammolarini yoritishda she’riy ifodalardan unumli foydalangan. Maqolada ushbu she’riy parchalar mazmuni, ularning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.
--	---

---

### АНАЛИЗ ПОЭТИЧЕСКИХ ФРАГМЕНТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ 'SIYOSATNOMA'

**Умидা Бахронова**

*Студентка 4 курса бакалавриата*

*Высшая школа туркологии*

*Ташкентский государственный институт востоковедения*

*E-mail: [bahronovaumidatdshu@gmail.com](mailto:bahronovaumidatdshu@gmail.com)*

**O. Турдиева**

*доктор филологических наук*

*доцент Высшей школы иранистики и афганистики*

*ТГИВО*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Низам аль-Мульк, Сийосатнома, великолодущие, дружба, поэтические искусства, контраст.

**Аннотация:** В данной статье анализируются поэтические фрагменты в произведении Сийосатнома великого государственного деятеля и мыслителя Низам аль-Мулька. Стихи, встречающиеся в произведении, охватывают идеи государственного управления, справедливости, моральных ценностей и дают полезные советы правителям. Автор эффективно использовал поэтические выражения для освещения политических и социальных проблем своего времени. В статье рассматривается содержание этих поэтических фрагментов и анализируются их художественные особенности.

Nizomulmulk (1018–1092) – buyuk davlat arbobi, siyosatchi va mutafakkir bo‘lib, Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri sifatida tanilgan. Uning asl ismi Abu Ali Hasan ibn Ali ibn Ishoq To‘siv bo‘lib, "Nizom ul-Mulk" (ya’ni, "Mamlakat tartibi") unvoni unga xizmatlari uchun berilgan.

Saljuqiylar davlatining vaziri – Nizomulmulk Alp Arslon va uning o‘g‘li Malikshoh davrida (1063–1092) 30 yildan ortiq bosh vazirligini qilib, davlatni kuchaytirishda muhim rol o‘ynagan.

Tartibli boshqaruv tizimini yaratgan – Uning boshchiligidagi Saljuqiylar imperiyasi markazlashgan kuchli davlatga aylandi.

Nizomulmulkning eng mashhur asari "Siyosatnama" bo‘lib, u davlat boshqaruvi, adolat, axloq va siyosiy strategiyalar haqida yozilgan. Ushbu kitob sultonlar, vazirlar va boshqa davlat arboblari uchun yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilgan.

Asarning yozilish sababi quyidagicha, Nizomulmulk Saljuqiylar sultoni Malikshohning topshirig‘i bilan davlat boshqaruvi haqida maslahat va tajribalarini qog‘ozga tushirgan. Unga ko‘ra, Malikshoh o‘z vazirlaridan davlat boshqaruvini yaxshilash uchun takliflar yozilgan kitob yozishni so‘ragan. Nizomulmulk bu topshiriqqa javoban "Siyosatnama" asarinini yozgan.

Asarning tuzilishi. "Siyosatnama" 50 bobdan iborat bo‘lib, har bir bob o‘z ichida bir necha hikoyatlarni jamlaydi. Unda adolatli hukmdor fazilatlari, boshqaruv tizimi, poraxo‘rlik va korrupsiya, josuslar va xufiyachilar, islomiy qadriyatlar va odob-axloq kabi mavzular tarixiy voqealar va hayotiy misollar orqali oolib berilgan.

Asarning ahamiyati. O‘rtalashtirish davlat boshqaruvi haqida yozilgan eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Asar davlatni qanday boshqarish kerakligi bo‘yicha mukammal qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Nizomulmulkning "Siyosatnama" asarida uchta she’riy to‘rtlikka duch kelamiz. Ular quyidagilar:

جوانمردی از کارها بھتر است

جوانمردی اخلاق پیامبر است

دو گیتی بود بر جوانمرد راست

جوانمرد باشی، دو گیتی تراست

Juvonmardlik hamma ishdan yaxshidir

Juvonmardlik payg‘ambarlar xulqidir

Ikki dunyo ham mardu sahiylarniki

Mard bo‘l ikki olam bo‘lur seniki.

Nizomulmulk yuqoridagi she’riy misolni “To‘kin-sochin dasturxon yasatish va ziyofat berish tartibi” haqidagi bobdagisi “Muso va Fir‘avn” hikoyatidan keyin keltiradi. Yozuvchi bevosita davr uchun muhim bo‘lgan islomiy axloqni insoniy fazilat yoniga ko‘ndalang qo‘yadi. Bu bir tomondan muhit taqozosi bo‘lsa, boshqa tomondan vazirga xos bo‘lgan qarashlar majmuidir. Shu o‘rinda yozuvchi jo‘mardlik fazilatiga alohida urg‘u bergen. Nizomulmulk “Muso va Fir‘avn” hikoyatini keltirar ekan, garchi inson qanchalik ablak va tuban bo‘lmashin, unda jo‘mardlik, ya’ni xayr-saxovat

hamda qo‘li ochiqlik bo‘lsa u Haq taolo himoyasida ekanini bayon qiladi. Xuddi shu holatni she’riy ipga tizadi hamda bevosita hamma ishlarning eng yaxshisi jo‘mardlikdir deydi: جوانمردی از کارها بهتر – است "Jo‘mardlik hamma ishdan yaxshidir".

Bu she’r insoniy fazilatlarning eng ulug‘i bo‘lmish juvonmardlik, olijanoblik, saxovat, himmat haqida. She’rda mardlik va sahiylik ikki dunyo saodatiga eltuvchi yo‘l sifatida ko‘rsatilgan. Har qanday ish va fazilat ichida eng yaxshisi juvonmardlikdir. Chunki u insoniylikning oliv belgisi hisoblanadi. Payg‘ambarlarning axloqi juvonmardlikka asoslangan. Haqiqiy insoniylik bu – saxovatli va adolatli bo‘lishdir. Haqiqiy mard va sahiy insonlar faqat bu dunyoda emas, balki oxiratda ham saodatga erishadilar. Chunki saxovat va mardlikning mukofoti ham bu dunyoda, ham u dunyoda beriladi. Agar sen mard bo‘lsang, ikki dunyo saodatiga erishasan. Ushbu she’riy parcha "Muso va Fir’avn" hikoyatiga qisqa va ibratli xulosa sifatida berilgan hamda insonlarni mardlik va saxovatga chaqiradi.

Nizomulmulk madh etgan juvonmardlik boshqa fors adiblari ijodida ham ko‘p uchraydi. Masalan, Kaykovusning "Qobusnoma"sida javonmardlik tarbiyasi haqida asarning eng oxirgi bobo – qirq to‘rtinchchi bobda so‘z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo‘ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri javonmardlikdir. Javonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so‘zning ustidan chiqish, ya’ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, insonparvarlik, xayr ishini ilgari tutish.

"Siyosatnoma" asarida keltirilgan yana bir she’r quyidagicha:

در عالم سودی به زیان کم دیدم  
به کینه حریف مهریان کم دیدم  
یک دوست، که دشمن نشود آخر کار، بین  
بسیار بجستم به جهان و کم دیدم  
  
Olamda ziyonsiz foyda kam ko‘rdim  
Kinasiz mehribon do‘st kam ko‘rdim  
Oxir borib yot bo‘limgan do‘stini  
Bisyor qidirdimu olamda kam ko‘rdim.

Bu she’rda shoir do‘stlik va sadoqat mavzularini chuqur va hissiy tarzda ifodalagan. She’rning har bir misrasi o‘zida chuqur ma’nolar va badiiy san’atlarni saqlaydi. Endi har bir baytni alohida tahlil qilib, undagi badiiy san’atlarni aniqlaymiz.

Birinchi misrada shoir dunyoda hech qanday zarar yetkazmaydigan, sof foydali narsalarni kam ko‘rganini aytadi. Bu misrada insoniyatning xolis va manfaatsiz munosabati yetishmasligi

haqida fikr yuritiladi. Adib tazod san'atini qo'llab, "ziyonsiz" (zararsiz) va "foyda" (foydalii), "do'st" va "dushman" so'zleri orqali ta'sirchanlikka erishgan.

Shoir kin tutmaydigan, samimiy va mehribon do'stlarni juda kam uchratganini ta'kidlaydi. Bu misrada sadoqatli va vafodor do'stlikning qadri va nodirligi ta'kidlanadi. Shoir oxirgi paytda, ya'ni eng qiyin vaqtarda ham yonidan ketmaydigan, sadoqatli do'stlarni ko'p qidirganini, lekin topa olmaganini aytadi. Bu misrada do'stlikning chinligi va vafodorligi haqida fikr yuritiladi. She'rda shoir do'stlik va sadoqat mavzularini chuqur va hissiy tarzda ifodalagan.

از دشمنان دوست خزر كردن رواست

با دوستان دوست تو را دوستى نكوسن

چون نيش و نوش همه باید بزیست

با دوستان دشمن و با دشمنان دوست

Do'st dushmanlaridan hazar qilish ravodir

Do'st do'stlarini do'st tutish ravodur

Ikki toifa odamlarga ishonma:

Dushmanning do'stlariga va do'starning dushmaniga.

Yuqorida "Siyosatnoma" asaridan navbatdagi she'r keltirilgan bo'lib, unda do'stlik, dushmanlik va insoniy munosabatlarning nozik jihatlari chuqur va hikmatli tarzda ifodalangan. She'rning har bir misrasi o'zida muhim ma'nolar va badiiy san'atlarni qamrab oladi.

Shoir do'stning dushmanlaridan ehtiyyot bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Chunki do'stning dushmanlari ham sizga zarar yetkazishi mumkin. Bu misolda do'stlik va dushmanlik o'rtasidagi nozik munosabatlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu to'rtlikda ham tazod san'ati "do'st" va "dushman" so'zleri orqali ifoda etilgan. Shuningdek, tazod san'ati "dushmanning do'stlari" va "do'starning dushmanlari" iboralarini berish orqali ham ta'kidlangan.

Shoir do'stning do'stlarini ham o'z do'sting deb bilish kerakligini aytadi. Bu misolda do'stlikning kengayishi va uyg'unligi haqida fikr yuritiladi. Shoir ikki turdag'i odamlarga ishonmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Bu she'rda insoniy munosabatlardagi xavflar va ehtiyyotkorlik haqida fikr yuritiladi. Shoir dushmanning do'stlariga va do'starning dushmanlariga ishonmaslik kerakligini aytadi. Bu misolda insoniy munosabatlarning murakkabligi va xavflari haqida fikr yuritiladi. She'rda shoir do'stlik va dushmanlik mavzularini chuqur va hikmatli tarzda ifodalagan. Uning fikricha, do'stlik va dushmanlik o'rtasidagi munosabatlar juda nozik va ehtiyyotkorlik talab qiladi.

Xulosa qilganda "Siyosatnoma" asari to'liq nasriy asar bo'lishiga qaramasdan, unda 3 ta she'riy to'rtliklar keltirilgan. Biroq she'rlarning qaysi shoir qalamiga tegishli ekanligi noma'lum. Shu sababli katta ehtimol bilan Nizomulmulkning o'zi ushbu she'rlar muallifi bo'lishi mumkin. Bu she'riy

parchalar asardagi hikoyat mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ularda turli badiiy san'atlar qo'llanilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент 2008
2. Кайковус. Қобуснома. Тошкент 1986
3. Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. Тошкент 1998.